ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA NEYROLINGVISTIKA SOHASINING PAYDO BO‘LISHI VA UNING AHAMIYATI

H.S.Egamberdiyeva,
SamDCHTI tayanch doktaranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada biz zamonaviy tilshunoslikda paydo bo‘lgan yangi soha neyrolingvistika, uning paydo bo‘lishi, rivojlanishi, bugungi va kelajakdagi ahamiyati to‘g‘risida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: nevrologiya, tilshunoslik, kognitiv tilshunoslik, neyropsixologiya, psixolingvistika, afaziya, afaziyalogiya, Brokko maydoni, Vernika hududi.

Kirish. Neyrolingvistika (lot neuron -nerv va lingua — til) — psixologiya fani sohasi, afaziyaning psixolingvistik jihatlarini o‘rganadi. Neyrolingvistikaning fan sifatida vujudga kelishi, bir tomondan, neyropsixologiyaning, ikkinchi tomondan, lingvistika va psixolingvistikaning rivojlanishi bilan bog‘langandir. Hozirgi zamon neyropsixologiyasida neyrolingvistika so‘zlashga miyaning sistemali funksiyasi sifatida, afaziyaga esa sistemaning buzilishi sifatida karaydi. Neyrolingvistikaning rivojlanishi psixolog A. R. Luriya (1902—77) va uning shogirdlarining ilmiy ishlari bilan bog‘liqdir.[1]

Demak neyrolingvistika – neyron va lingvistika so‘zlarining o‘zaro birikuvidan hosil bo‘lgan va inson miyasidagi nerv hujayralarining ya’ni neyronlarning tilde nutqdagi so‘zlarni hosil qilishdagi vazifasini o‘rganadi. Neyrolingvistika nutqning shakillanishi va tushunilishini ta’minlovchi bosh miya mexanizmini o‘rganuvchi fandir.

Neyrolingvistikaning paydo bo‘lishi fundamental kashfiyotlardan sanaladi va bu atamaning kelib chiqishi 1940- yillarning oxiri va 50- yillarda Edit Krouell Trager, Anri Xeker va Aleksandr Luriyaga tegishli. Luriyaning “Neyrolinvistika muammolari” nomli kitobi ushbu sohadagi birinchi kitobdir ehtimol. Garri Uitaker

[1] https://uz.wikipedia.org/wiki/Neyrolingvistika#cite_note-1

1970-yilda AQShda neyrolingvistikani ommalashtirib, 1974-yilda “Brain and Language” jurnaliga asos soldi. Neyrolingvistikani fundamental kashfiyot deb atashimizga asos bunda bosh miya po‘stlog‘ida psixik jarayonlarning lokolizatsiyasi (to‘xtab qolishi) va inson miyasining funksional assismetriyasi bog‘liqligi turadi. Fanning vujudga kelishida A.R. Luriya, Karl Vernikke, Pol Brokko va Teador Mayner nomlari bilan bog‘liq.

Neyrolingvistika biologiya, san’at, psixologiya, linguakriminalistika, fiziologiya va meditsina fanlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib unung o‘rganish ob’ekti miyaning nutqiy va fikriy faoliyati, miyaning xotira va hissiyotlar mexanizmi hisoblanadi. Insonda ikkita miya bor, bu miya va miyachadir. Miyacha- ta’na muvozanatini boshqaradi (u engsa chuqurchasida joylashgan bo‘ladi). Miyani 2ga: o‘ng va chap yarimshar miyaga ajratgan holda o‘rganamiz.

Miya neyron (hujayra)lardan tashkil topgan bo‘lib, usti akson(oq tolacha)lar bilan qoplangan. Insonning muloqot jarayonini miya boshqarib, miya faolligi quyidagicha bo‘ladi:

Chap yarimshar miya – tillik miya; nutq markazlari joylashgan, so‘z bilan bog‘liq tafakkur aperatsiyalarini bajaradi.

O‘ng yarimshar miya – dunyoni so‘zsiz idrok etadi, asosiy vazifani ko‘zlar bajaradi.

Ambidekslar – har ikki miya faol ishlaydi, ularda nutq buzulishi bilan bog‘liq kasalliklar tezda tuzaladi.

Neyrolingvistika fanining muammolari doimiy va o‘zgarishda bo‘lib, uning mazmuni, qoidalari, paradigmasi aniq va ravshan emas. Shunga qaramay fanning tadqiqot muammolari doirasi keng.

1861- yilda fransuz anatomi P.Brokko tadqiqotida peshona chap egri yarimshari shikastlanishini o‘rganadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, miyaning bu qismi zararlanganda insongapirish qobiliyatini yo‘qotadi, ammo boshqaning nutqini to‘liq tushunadi.

1874-yilda nemis psixiatri K.Verniki miyaning chakka egri yarimshari shikastlanishini o‘rganadi va bunda inson gapira olishi ammo boshqaning nutqini tushunaolmasligini aniqlaydi.

Miyaning vazifaviy assimetriyasi: chap yarimshar miya - mantiqiy ratsional tafakkur qilish vazifaini bajaradi; o‘ng yarimshar miya- obrazli, emotsional tafakkur qilish vazifasini bajaradi. Miyaning vazifaviy assimetriyasiga uzoq davrlar chap yarimsharlar asosiy deb qaralgan. Zamonaviy bilimlar shuni ko‘rsatayaptiki insonlarda nutq zonasi turlicha, u yoki bu yarimshardajoylashishi mumkin.

Neyrolingvistikani yana bir jadal rivojlanayotgan tarmog‘i bu neyrolingvistik dasturlashdir va bu bizning tilimizga tarjima qilsak nerv, til va dasturlash degan so‘zlar kelib chiqadi. Yoki tushunarli tilda aytadigan bo‘lsak, insonni til va so‘zlar yordamida dasturlash degan ma’noni beradi. Bugungi kunda gipnozchilar va manipulyatsiya texnikalarini o‘rgangan kishilar neyrolingvistik dasturlashdan foydalanib o‘z maqsadlariga yetmoqdalar. Uning yordamida insonga xohlagancha ta`sir ko‘rsatib, uning o‘zini tutishini boshqarish mumkin. Bu texnika gipnoz qilishning ham asosidir. Boshqa kishini boshqarish uchun oldin unga moslashish kerak. Moslashish uchun suhbatdoshning harakatlari ritmiga (holati, ko‘z qarashi, gavdani ushlashi, qo‘llarining holati, oyoqlarining holati, nafas olish ritmi,…) kirish kerak. Lekin bunda uning kayfiyatiga kira olish eng asosiy ahamiyatga ega. Nafas olish ritmiga moslashish katta natijalar beradi.

Nutqning yuzaga kelishi: Kundalik muloqot(oddiy vaziyatlar, oddiy so‘zlar va sintaktik konstruksiyalar) – o‘ng yarimsharda (chap yarisharda qisman). Murakkab abstract mavzular chap yarimsharda faol bo‘ladi.

Nutqning qabul qilinishi: birinchi so‘zdan boshlab ikki yarimshar ham ishlay boshlaydi, chap yarimshar til birliklarini qabul qiladi, o‘ng yarimshar tasvir butunligi va obrazlarni chizishni qabul qiladi. So‘ngida yarimsharlarning ikkisi ham ma’lumotni birlashtiradi va muqobil voqelikka kiradi.

O‘ng miya har qanday vaziyatni baholaydi va so‘zlarga muhtoj emas ammo chap miyasiz o‘ng miya hech qanday aniq fikrni so‘z bilan bera olmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Wernicke.C “Der Aphasische Symptomencomplex. Eine Psychologische Studie auf Anatomischer Basis” Breslau: Cohn und Weigard 1874 y
2. Broca,P “Perte de la parole, ramollissement chronique et destrauctionpartielle du lobe anteri eur gauche du cerveau” Bulletin de la societe d’anthropologie 1861 y
3. https://cyberleninka.ru/article/n/neyrolingvistik-dasturlashning-ayrim-psixologik-jihatlari
4. https://www.livelib.ru/book/1000824883-osnovy-nejropsihologii-aleksandr-luriya
5. https://www.livelib.ru/book/1000218869-yazyk-i-soznanie-a-r-luriya
6. https://www.livelib.ru/book/1000032553-lektsii-po-obschej-psihologii-a-r-luriya
7. https://www.livelib.ru/book/1000249974-osnovnye-problemy-nejrolingvistiki-a-r-luriya
8. https://bolcheknig.ru/uz/encyclopedia/fiziologicheskie-osnovy-rechi-kratko-rech-e-funkcii-i-fiziologicheskie/
9. Туробов, А. (2021). ҚЎШМА СЎЗ–МИКРОСИНТАГМАТИК МУНОСАБАТЛАР ОБЪЕКТИ СИФАТИДА. FILOLOGIYA UFQLARI JURNALI, 6(6).
10. Туробов, А. (2016). Қўшма сўз компонентлари хусусида. Иностранная филология: язык, литература, образование, 1(4), 55-57.